

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ESSE YOZISHGA O'RGATISH ORQALI O'QUVCHILARNING FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH METODLARI

M. Imomova¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma ish shakllari, esse yozish bo'yicha mavjud qoidalar, boshlang'ich ta'limda esse yozish ko'nikmalarini hosil qilish va bu orqali ularning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish bo'yicha kerakli tushuncha va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, yozma ish shakllari, esse, metod, usullar, fikrlash qobiliyati, ta'lim sohasi, bilim, yozish ko'nikmasi, shaxsiy fikr, ko'nikma, xulosa, tavsiyalar.

doi: <https://doi.org/10.2024/oqywfd42>


Biz bilamizki, hozirgi rivojlanayotgan davrda o'sib kelayotgan yosh avlod bilim darajasi, dunyoqarashiga keng e'tibor berilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish hamda ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy, hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash" kabi yo'nalishlar ustuvor vazifalar sifatida belgilab berildi. Bu esa ta'limning dastlabki bosqichi, boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, salohiyatini yanada oshirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ayniqsa, ta'lim tizimida o'quvchilarning yozma nutq malakalarini shakllantirish masalasi asosiy maqsadlaridan biri bo'lib kelmoqda. Ona tili ta'limida yozma nutq malakalarini shakllantirish turli usullarda: diktant, bayon, insho – yozma ish shakllari orqali amalga oshirilmoqda va hozirgi zamon talabiga muvofiq yangi tur – esse yozish ko'nikmasini shakllantirish, o'quvchilarni ushbu jarayonga tayyorlash masalasiga e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonni boshlang'ich ta'limdayoq amalga oshirishni yo'lga qo'yish ularda dastlabki ko'nikma hosil qilib, mavzuni to'liq yoritish olish va ushbu yozma ish turini boshqalaridan farqlash imkoniyatini yuzaga keltiradi. Natijada, ularda kichik yoshdanoq fikrlash qobiliyatini o'stirish, mulohaza yuritish, biror masala yuzasidan o'zining shaxsiy fikrini bildira olish qobiliyati shakllanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga dastlab diktant, bayon va insho yozma ish turlari haqida ma'lumot berilib, ularni yoza olish ko'nikmasi hosil qilinganligi bois ularga tanish bo'lgan yozma ish turi inshoni, esse janri bilan solishtirib, farqli tomonlari tushuntirilsa yangi tur haqida tushuncha hosil qilish osonroq bo'ladi.

¹ *Imomova Malika Shovqiddin qizi, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Pedagogika ta'limi fakulteti talabasi*

INSHO

- ❖ Adabiy mavzularda yoziladi;
- ❖ Maxsus bilimni talab qiladi;
- ❖ Badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalaniladi;
- ❖ Fikrni ta'sirchan ifodalash ustuvor bo'ladi;
- ❖ Reja asosida yoziladi;
- ❖ Tuzilish jihatidan farq qiladi (mavzu, reja, epigraf, kirish ,asosiy qism ,xulosa)
- ❖ Ta'limda adabiy,ijodiy va erkin mavzudagi insholardan foydalaniladi;
- ❖ Inshodan ko'zda tutilgan maqsad o'quvchida yozma nutqini ta'sirchan ifodalash ko'nikmasini rivojlantirish




ESSE

- ❖ Autentik mavzularda yoziladi. Maxsus bilimni talab qilmaydi. Hayotiy bilimni talab qiladi.
- ❖ Argumentlardan unumli foydalaniladi.
- ❖ Fikrni ishonchli ifodalash ustuvor bo'ladi.
- ❖ Reja qo'yilmaydi.
- ❖ Tuzilishi jihatidan farq qiladi (mavzu, kirish, asosiy qism, xulosa)
- ❖ Ta'limda argumentli (muhokama),qiyosiy,analitik, interpretatsion hamda muammo va yechim esselaridan faol foydalaniladi.
- ❖ Essedan ko'zda tutilgan maqsad o'quvchida hayotiy vaziyatlarga yozma tarzda munosabat bildirish ko'nikmasini rivojlantirish.

Esse janri haqida umumiy tushunchalar beriladi.Esse(fransuz tilida “essai”-tajriba,ingliz tilida “essay”,“assay” – intilish ,ijodiy sinov,ocherk;lotincha “exagium”-o`ylash)-erkin kompozitsiyali,uncha katta bo`lmagan nasriy asar.Esse orqali narsa va hodisalarga yoki shaxsga oid sub'yektiv fikr bayon qilinadi. Mustaqil janr sifatida A.Montel ijodida tarkib topdi.O`zbek adabiyotida XX asrning 70-80 - yillarida esse yaratila boshlandi.

Esse – o`quvchining aniq bir hodisa yoki mavzu yuzasidan shaxsiy fikr - mulohazalari asosida,o`z dunyoqarashidan kelib chiqqan holda yoziladigan ixcham ijodiy yozma ish.Uning boshqa yozma ish turlaridan o`zgachaligi mavzuda ko`tarilayotgan muammolarning kelib chiqish sabablari va uning yechimlari aniq fakt va dalillarni o`rinli keltirish orqali o`z munosabatini bildirishidir.Essening tuzilishi:**Essening kirish qismi:**mavzu qayta nomlanadi,ya'ni berilgan masalaga umum jihatdan izoh beriladi.O`qirroman mavzuga olib kiriladi;**Essening asosiy qismi:**1-**argumentni keltirish:**mavzu yuzasidan o`z pozitsiyangizni ochib berishga qaratilgan dalil keltirish,uni tushuntirish va izohlash.2-**argumentni keltirish:**mavzu yuzasidan o`z pozitsiyangizni ochib berishga qaratilgan,birinchi argumentni to`ldiradigan ikkinchi dalilni keltirish,uni tushuntirish va izohlash.**Essening xulosasi:**asosiy qismda keltirilgan argumentlar asosida xulosaga kelish.Fikrni yakunlash,o`z fikrini bayon etish.

ESSE YOZISH STRATEGIYASI



Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda boshlang'ich sinflarda esse yozishni o'rgatish tartibi muhim jarayon hisoblanadi. Ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarida bunday ko'nikmani hosil qilish biroz murakkab, chunki hali ular o'z fikrlarini to'liq bayon qila olishga qiynaladilar, fikrlash doirasi unchalik keng bo'lmaydi. Shuning uchun ularga sodda va aniq tushuntirishlar olib borish, avvalo misol keltirish orqali tushuncha hosil qilish kerak. Masalan, buni quyidagi tartibda amalga oshirish mumkin.

Kirish. Bu qismda esse mavzusi tushuntiriladi. Ushbu esseda ixtiyoriy mavzu (kitobning zamonaviy texnologiyadan afzalliklari) ni muhokama qilamiz

Fikr berish. Essening bu qismida siz mavzu yuzasidan o'z fikrlaringiz va mulohazalaringizni ifodalashingiz kerak.

Biz bilamizki, kitob – bizning eng yaqin do'stimiz. Biz barcha kerakli bilimlarni kitob orqali o'rganishimiz, yanada ko'proq narsalar haqida bilib olishimiz mumkin. Shunday ekan, biz har doim yanada ko'proq kitob o'qishga harakat qilishimiz kerak.

Solishtirish va farqlash. Bu qismda siz o'z qarashlaringizdan farq qiladigan fikrlar, ya'ni masalaning ikkinchi tomonini keltirasiz.

Zamonaviy texnologiya vositalarining qulayliklari va afzalliklari bilan birga inson salomatligiga salbiy tomonlari borligi haqida ham o'ylab ko'rganmisiz?

Natijani ifodalash. Ushbu fikrda siz umumiy bir to'xtamga kelib, o'zingiz tarafdori bo'lgan fikrni natija sifatida keltirasiz. Aynan hozirda keng ommalashgan zamonaviy texnologiya vositalarining salbiy ta'sirlari har bir insondan o'z sog'ligi va kelajagi haqida jiddiy o'ylab ko'rishni talab etmoqda.

Misollar keltirish. Essening bu qismida siz hayotiy misollar keltirish orqali mavzuni yanada boyitishingiz mumkin.

Zamonaviy texnologiya vositalarining keng ommalashishi insonlar orasida turli salbiy ta'sirlar, jumladan yosh bolalarda ko'z kasalliklari bilan bog'liq og'ir holatlar kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Qo'shimcha qilish. Bu qismda siz mavzuga bevosita aloqador deb bilgan g'oya, fikr va qarashlarni qo'shimcha sifatida keltirishingiz mumkin.

Yechimlar taklif qilish. Bu qismda siz essedagi muhokamali mavzu yuzasidan o'z yechim va takliflaringizni berasiz. Shunday ekan, har bir kishi o'z sog'ligiga salbiy ta'sirlar bo'lmasligi uchun zamonaviy texnologiya vositalaridan me'yorida foydalanishi, ilmiy ishlarda ko'proq kitobdan foydalanishi kerak.

Xulosa. Bunda siz butun essedagi qarashlaringizni tugal bir fikr bilan ifodalashingiz kerak. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, zamonaviy texnologiyalar – biz uchun ulardan me'yorida foydalansakkina foydali va qulay. Shunday ekan, ular sog'ligingiz va kelajagingizga zarar yetkazishiga yo'l qo'ymang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. *Ona tili – 6 - sinf darsligi.* Tuzuvchilar: Iroda Azimova, Klara Mavlonova, Sad'ullo Qur'onov, Shokir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov (Toshkent-2022).

[2]. *Umumta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimi Ona tili va Adabiyot .Esse yozish strategiyasi.* Ma'ruzachi: Shohruh Abdurahim.

[3]. *Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.* Toshkent: O'zbekiston. 2000.

[4]. Gulyamova Nigina Azimovna. *universalpublishings.com.* ISSN(E): 2181-4570

[5]. *Esse qanday yoziladi?* Orif Tolib. Milliy sertifikat-2024

[6]. Baxtiyor.uz.